

QO‘QON ADABIY MUHITIGA FUZULIY TA’SIRI: AN’ANA VA YANGILANISH

*Muhammadiyev Axadjon Maxmudovich, Shahrisabz davlat
pedagogika instituti Filologiya fakulteti dekani, filologiya
fanlari nomzodi, dotsent*

THE INFLUENCE OF FIZULI IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KOKON: TRADITION AND RENEWAL

*Muhammadiyev Akhadjon Makhmudovich, Dean of the Faculty
of Philology, Shahrisabz State Pedagogical Institute, Candidate
of Philological Sciences, Associate Professor*

ВЛИЯНИЕ ФИЗУЛИ НА ЛИТЕРАТУРНУЮ СРЕДУ КОКАНДА: ТРАДИЦИЯ И ОБНОВЛЕНИЕ

*Мухаммадиев Ахаджон Махмудович, декан
филологического факультета Шахрисабзского
государственного педагогического института, кандидат
филологических наук, доцент*



<https://orcid.org/0009-0008-3135-7236>

e-mail:

abdulahadmuhammad@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitidagi adabiy ta’sirning ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, Muhyi va uning zamondosh shoirlariga Fuzuliy ijodining ta’siri batafsil ochib beriladi. Zavqiy, Muqimiy va Muhyi kabi shoirlarning g‘azal va muxammaslarida Fuzuliy uslubining o‘ziga xos aksini topishi aniq misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ushbu adabiy ta’sirning estetik va ma’naviy jihatdan o‘zbek she’riyatidagi o‘rni va qimmatini yoritilgan. Maqolada Fuzuliy an’analariining Qo‘qon adabiy muhitida qanday qabul qilingani, ularning o‘zbek klassik she’riyatidagi muhabbat lirikasiga ta’siri va bu jarayonda shoirlarning individual uslubi ham e’tiborga olingan. Natijada, Fuzuliy ijodining o‘zbek adabiyotidagi chuqur izlari ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’sir, adabiy aloqa, Fuzuliy, Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, nazirago‘ylik, taxmis, an’anaviy she’riyat, adabiy muhit.

Abstract: In this article written a comprehensive analysis of the importance of literary influence in the Kokand literary environment of the second half of the 19th and early 20th centuries. In particular, the influence of Fuzuli’s work on Muhyi and his contemporary poets is revealed in detail. It is considered on the basis of specific examples that poets such as Hazari, Muqimi and Muhyi find a distinctive reflection of the Fuzuli style in ghazal and mukhammas. At the same time, the place and value of this literary influence in Uzbek poetry in aesthetic and spiritual terms is illuminated. The article also focuses on how the Fuzuli tradition is perceived in the Kokand literary environment, their influence on the lyric of love in Uzbek classical poetry, and the individual style of poets in the process. As a result, deep traces of Fuzuli’s work in Uzbek literature are highlighted.

Key words: literary influence, literary communication, Fuzuli, Muhyi, Muqimiy, pleasure, naziragyluk, assumption, traditional poetry, literary environment.

Аннотация: В этой статье представлен всесторонний анализ важности литературного влияния в кокандской литературной среде второй половины XIX и начала XX веков. В частности, подробно раскрывается влияние творчества Физули на Мухийи и его современных поэтов. На основе конкретных примеров рассматривается, что такие поэты, как Хазари, Муками и Мухийи, находят своеобразное отражение физиулинского стиля в газалях и мухаммасах. В то же время освещается место и ценность этого литературного влияния в узбекской поэзии в эстетическом и духовном плане. В статье также рассказывается о том, как традиция Физули воспринимается в литературной среде Коканда, их влиянии на лирику любви в узбекской классической поэзии и индивидуальном стиле поэтов. В результате выделяются глубокие следы творчества Физули в узбекской литературе.

Ключевые слова: литературное влияние, литературная коммуникация, Физули, Мухийи, Муками, наслаждение, назирагуйлик, традиционная поэзия, литературная среда.

KIRISH (INTRODUCTION). Qo‘qon adabiy muhiti vakillariga, ayniqsa, Navoiy va Fuzuliy ijodi ulkan ta‘sir o‘tkazgan. Davr ijodkorlari, xususan, Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida, ta‘kidlaganimizdek, ozar shoiri Fuzuliyning ham ta‘sir ko‘lami keng. O‘zbek adabiyoti tarixida, umuman, Fuzuliy XVII asr va undan keyingi o‘zbek adabiyoti tarixida salmoqli mavqe egallaydi.

Taniqli adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov bu haqda shunday deb yozadi: “Fuzuliy ulug‘ bobomiz Navoiydan ko‘p ta‘sirlanganidek, o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotiga zo‘r ta‘sir ko‘rsatgan san‘atkordir. Hech bir shoir o‘zbek klassik adabiyotiga Fuzuliychalik kuchli ta‘sir ko‘rsatgan emas. Buning uch sababi bor: birinchisi – Fuzuliy tilining o‘zbek tiliga yaqinligi; ikkinchisi – Fuzuliyning xushlafz, shirin zabonligi; uchinchisi – Fuzuliy asarlarining badiiy barkamolligi... O‘zbek shoirlari qariyb ikki asrdan beri Fuzuliy asarlariga maftun bo‘lib keladilar. Bizning shoirlarimiz uchun Fuzuliy badiiy balog‘atning simvolidir. Shunga ko‘ra, XVIII va XIX asrlar davomida yashab ijod etgan ko‘p zabardast shoirlar Fuzuliy g‘azallariga muxammaslar bog‘laganlar. Bu an‘anani Muhyi, Furqat, Muqimiy, Zavqiylar davom ettirganlar” [1;310-311].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). O‘rganayotgan mavzumizning nazariy qismini yoritishda R.J.Vohidovning “XV asrning 2-yarmi XVI asr boshlarida o‘zbek-tojik she‘riyat”, T.Jalolovning “Go‘zallik olamida: maqolalar, adabiy tadqiqotlar” nomli ilmiy tadqiqotlaridan foydalanildi. Mazkur tadqiqotlarda biz mubohasa yuritayotgan mavzuga aloqador fikrlar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Ilmiy

qiyoslash hamda germeneytik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Fuzuliy ijodiga ergashish, g‘azallariga muxammaslar bog‘lash Muhyi zamondoshlarining aksarida mavjud. Shunday ijodkorlardan biri Zavqiydir. Zavqiy ash‘ori ichida Fuzuliyning mashhur “aylar orzu” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi borki, bu g‘azalga muxammas bog‘lash shu davr ijodkorlari uchun go‘yoki an‘ana tusini olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fuzuliy devonida:

Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu,

To‘tiyi jon la‘li shakkarboring aylar orzu [5; 262]

– bayti bilan boshlanadigan, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan g‘azal mavjud. Fuzuliyning mazkur g‘azalidan Zavqiydan tashqari Muhyi va Muqimiylar ham baqamti ta‘sirlangan holda ijod etishgan. Shoir Zavqiy tomonidan bog‘langan muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

Man ijobat istadim tiyri duodin dam-badam,

Shoyad o‘lg‘ay deb qabul, ul dilrabodin dam-badam,

Ruq‘a ummid aylagaylar oshnodin dam-badam,

Hajri bemori tanim bodi sabodin dam-badam,

Sihhat uchun suhbat axboring aylar orzu [2; 87].

Fuzuliy g‘azali sevgi va hasrat ifodasiga asoslangan bo‘lib, u yorga bo‘lgan muhabbat, uning firoqida chekkan dard va suhbatga intilish motivlarini aks ettiradi. Bunday ruhiyat uning klassik she‘riyatida keng uchraydi. Zavqiy esa bu g‘azalga taxmis bog‘lash asnosida, uning ruhiyatini saqlagan holda, o‘zgacha mazmun va hissiyotlar qo‘shgan.

Zavqiy o‘z duosining qabul bo‘lishini sevgan yoridan kutayotganini ta‘kidlaydi. Fuzuliy g‘azalidagi ehtiros va muhabbat Zavqiy taxmisida orzu va umid motivi sifatida davom etadi. Misralarda

oshiq sevgilisidan xabar olishga umid qilish bilan birga, hajr azobi yoʻlidagi dardli holatini tasvirlaydi (Zavqiy). Bodi sabo (shamol yordamida keluvchi xushxabar) vositasida yoridan nishona olishga umid bildiriladi. Oshiqning yashab qolishi uchun birgina yorning xabarini olish orzusi kifoya (Fuzuliy).

Fuzuliy gʻazalidagi dard va muhabbat motivlari Zavqiy taxmisida ham aks ettirilgan boʻlib, oshiqning ruhiy holati ifodalangan. Zavqiy oʻz taxmisida gʻazal bilan uygʻun vazn va qofiya tizimini saqlagan. Uning uslubi Fuzuliy gʻazaliga mos boʻlib, obrazlar, tashbehlar va ruhiy holatlar oʻzaro bogʻliq holda yozilgan.

*Yigʻlab ayturman falakka: “Ver murodim har dame,
Soate aylanma kaj, olgʻil qarore bar dame,
Na boʻlur desang, ayo, yuz birla olgʻil gardimi”,
Zulmati hajringda boxmaz shamʼa chashmim
mardumi,
Partavi ruxsori puranvoring aylar orzu.*

Zavqiyning ushbu taxmisi Fuzuliy gʻazali bilan maʼnaviy va uslubiy bogʻliqlikka ega boʻlib, uning umumiy ruhiyatini davom ettirgan. Zavqiyning taxmisi Fuzuliy gʻazalining ruhiyatini saqlagan holda, uning mazmunini boyitgan. Bu yerda oshiqning muhabbat va firoq azoblari, yorga boʻlgan intilishi va uning visoliga umid motivlari asosiy oʻrin tutgan.

Oshiq falakka murojaat qilib, oʻz murodini soʻraydi va taqdirning adolatli boʻlishini (soate aylanma kaj, olgʻil qarore bar dame) istaydi. “Falak” simbolikasi koʻpgina mumtoz sheʼriyatda taqdir va yordan ajralib qolishning sababchisi sifatida koʻriladi. Zavqiy bu gʻoyani davom ettirib, taqdirning adolatsizligi va oshiqning intilishini mohirona tasvirlagan.

Fuzuliy misalarida esa, hajr (ayriliq) zulmatga (qorongʻulik) qiyoslanadi. Unga koʻra, oshiq yorning hajri qorongʻuligida qolsa ham shamning yorugʻligiga koʻz qorasini qaratmaydi. Bilʼaks, yorning puranvor yuzidan yorugʻlikni umid qiladi. Boshqacha aytganda, oshiq koʻz yoshlarini shaʼmning yonishidan tashbeh qilib, uning intizorida yonib turganini ifodalaydi. Bu Fuzuliy sheʼriyatiga xos boʻlgan talmehlardan biri hisoblanadi.

*Husni zebo, ogʻzi gʻuncha, qomati shamshod gul,
Zulfi toringga oʻrolgon qullaring ozod qil,
Hajr zindonida qoldi Zavqiyi pobasta, bil,
Orzumandi visolingdur Fuzuliy xastadil,
Vasling istab, davlati diydoring aylar orzu.*

Zavqiy bu bandda yorning goʻzallik sifatlarini tasvirlagan. “Ogʻzi gʻuncha”, “qomati shamshod” kabi tashbehlar vositasida uning nafisligi va husni madh etilgan. Shuningdek, oshiq oʻzini zulflarga bogʻlangan qul deb tasvirlab, uni ozod qilishni yolvoradi. Bu bir vaqtning oʻzida muhabbatning kuchli taʼsirini va oshiqning ulkan muhabbatni zavq bilan qabul qilishini koʻrsatadi. Uchinchi misrada oshiq hajrni zindoniga qiyoslaydi. “Pobasta” (bogʻlangan) soʻzi orqali u hajr zindonida band ekanini bildiradi. Fuzuliyning “xastadil” (dardli dil) tashbehi bilan uygʻunlik yaratilib, ularning umumiy muhabbatga boʻlgan intilishi aks ettiriladi.

Zavqiyning taxmisi badiiy jihatdan juda boy boʻlib, quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Tashbeh va istioralar: “ogʻzi gʻuncha” (yorning lablari gʻunchaga qiyoslangan); “qomati shamshod gul” (yorning qomati baland shamshod daraxtiga oʻxshatilgan); “zulmati hajr” (hajr qorongʻulikga qiyoslangan).

2. Ritorik murojaatlar: falakka murojaat qilish; yorga murojaat qilish.

3. Hissiyotning kuchli ifodasi: oshiqning visolga umid qilishi va hajr zindonida aziyat chekishi.

Xullas, Zavqiy ushbu taxmisida Fuzuliy gʻazali ruhiyatini saqlab, uni yangi badiiy obrazlar bilan boyitgan. Uning taxmisi Fuzuliy gʻazalidagi muhabbat va hajr motivlarini davom ettiradi. Muhabbat va taqdir oʻrtasidagi ziddiyatni badiiy ifodalaydi. Klassik sheʼriyatga xos badiiy vositalarni mahorat bilan qoʻllaydi. Bu taxmis nafaqat Fuzuliy gʻazaliga mos keladi, balki uning taʼsirini kuchaytirib, Zavqiyning ijodiy mahoratini namoyon etadi.

Fuzuliyning mubohasamiz mavzusiga aylangan mazkur gʻazaliga Muhammad Aminxoʻja Muqimiy tomonidan (vazni va radifi saqlangan holda) bogʻlangan muxammasning dastlabki bandi quyidagicha:

*Ohuyi chin chashmi pur xummoring aylar orzu,
Nofasi ham turrai tarroring aylar orzu,
Huru gʻulmon feʼl ila atvoring aylar orzu,
Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu.
Toʻtiyi jon laʼli shakkar boring aylar orzu [3; 337].*

Fuzuliy, Zavqiy va Muqimiy ijodi oʻrtasidagi badiiy-ilmiiy tahlillarimizda davom etamiz. Fuzuliy gʻazali, Zavqiy va Muqimiy taxmisilari oʻrtasidagi umumiylik shundaki, ular bir xil vaznda va radifda yozilgan boʻlib, sevgi va hajr mavzusini aks ettiradi.

Biroq, har bir shoir bu mavzuda o'zining shaxsiy uslubi, hissiyoti va badiiy didini namoyon etadi.

Muqimiyning taxmisi ham Fuzuliy g'azali ruhiyatiga mos keladi, biroq uning uslubi Zavqiy taxmisidan biroz farq qiladi. Unda sevgi, hajr va orzu motivlari yanada obrazli va madhiy tusga ega.

Muqimiyning dastlabki bandida go'zallik madhi asosiy o'rin egallaydi. Fuzuliy g'azalida muhabbat va hajr ta'siri ustuvor bo'lsa, Muqimiy yorining jozibasini, husnini madh etishga ko'proq e'tibor beradi. "Ohuyi chin", "chashmi pur xummor" (mastona ko'zlar), "turrai tarror" (bezorilik qiladigan zulflar) – (Muqimiy), "to'tiyi jon" (jon to'tiysi) – (Fuzuliy) kabi tashbehlar vositasida yorning latofati va jozibasi tasvirlangan.

*Dilbaro, o'ylab xayoling-la xush o'lmas xotirim,
Yoki mastona xiroming-la xush o'lmas xotirim,
Goh-gohe nim nigohing-la xush o'lmas xotirim,
Nomai qosid, payoming-la xush o'lmas xotirim,
Uz labingdin lahjai gufyuring aylar orzu.*

Ikkinchi bandda oshiqning ruhiy holati va yorni yod etish jarayoni tasvirlangan. Fuzuliy g'azalidagi dard va hajr hissi Muqimiy muxammasida ham bor, biroq u buni hayotbaxsh tasvirlar orqali yumshatadi. Nomai qosid (xabar yetkazuvchi maktub), payom (xabar), nim nigoh (yarim qarash) kabi so'zlar oshiqning orzularini aks ettirgan.

*Ishq dashtida chu Majnun besar-u somon o'lan,
Lolatak qat-qat ko'ngilda g'am sirishki qon o'lan,
Ro'z-u shab vasling so'rog'lab diydasi giryon o'lan,
Sarv-u gul nazzorasi naylar sango hayron o'lan,
Orazing-la qaddi xush raftoring aylar orzu.*

Bu bandda oshiqning hajrdagi azoblari, muhabbat yo'lidagi sabr-qanoati tasvirlangan. An'anaviy Majnun obrazi orqali Muqimiy muhabbatning halokatli, lekin shu bilan birga pok ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu bandda dramatik obrazlar kuchli. Muhabbatning yuksak ruhiy va jismoniy azoblari, hajr sababli oshiqning chekkan dardlari aks ettirilgan.

Dastlabki misrada Majnun obrazi markaziy o'rin egallaydi. Majnun – an'anaviy islomiy va Sharq adabiyotida ishqning sadoqat va halokat timsoli. U Layli muhabbati bilan beqaror, sargardon va hech qanday dunyoviy maqsadsiz qolgan oshiq ramzi hisoblanadi.

Muqimiy bu obrazni o'z ijodida "ishq dashti" (muhabbat sahrosi) bilan bog'lab, oshiqning hayoti muhabbat yo'lida qurbon bo'lganini ko'rsatadi.

"Besar-u somon" (beqaror, sarson) iborasi orqali u oshiqning hech narsaga e'tibor qilmasligi, hayotining ma'nosi faqat sevgida ekanini ta'kidlaydi.

Lolatak qat-qat ko'ngilda g'am sirishki qon o'lan.

Bu misrada "sirishki qon" (qon yosh) iborasi muhim rol o'ynaydi. Oshiqning ko'z yoshi "lolatak" (loladek) qip-qizil. Sharq she'riyatida og'riq, alam va muhabbat rangi qizil (qon) bilan bog'liq. U ko'pincha oshiqning yurak og'rig'ini ifodalashda ishlatiladi.

"G'am sirishki qon" – qon yig'lash – muhabbat sababli sevgi yo'lida azob chekkan oshiqning haddan tashqari og'ir holi. Bu mubolag'ali tashbeh bo'lib, muhabbatning og'ir kechishi va oshiqning qalbida yig'ilgan alamni ko'rsatadi.

Ro'z-u shab vasling so'rog'lab diydasi giryon o'lan.

Bu yerda "ro'z-u shab" (kun va tun) ifoda vositasi bo'lib, oshiqning hech qachon tinchlik topmasligini bildiradi; "vasling so'rog'lab" – oshiq kun-u tun yorning vasliga intiladi, uning ishqini har lahza azobga soladi; "diydasi giryon" – oshiqning ko'zlari doim yig'lab turadi, hech bir lahza xushhollikni bilmaydi. Xullas, bu misralar salmoqli va ta'sirchan bo'lib, sevgi yo'lida sabr qilib, oshiqning doimiy intizorlikda ekanini aks ettirgan.

"Sarv-u gul nazzorasi naylar sango hayron o'lan", – misrasi ham muhim ramzlar bilan boyitilgan:

"Sarv-u gul" – tabiatdagi go'zallik timsollari. Sarv – go'zallik va balandlik ramzi, gul – latofat, yoshlik va muhabbat ramzi.

Orazing-la qaddi xush raftoring aylar orzu.

Bu yerda oshiqning oxirgi intilishi, umidining so'nmasligi aks ettirilgan. Demak, bandning umumiy xulosasi shuki, muhabbat va hajr dramatik, ta'sirli va kuchli obrazlar bilan berilgan; Majnun ramzi orqali oshiqning holati tasvirlangan; g'am va intizorlik hissi kuchli tashbeh va mubolag'alar bilan boyitilgan. Ushbu band Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning Fuzuliy g'azaliga yozgan muxammasining eng ta'sirchan qismlaridan biri bo'lib, shoirning san'atkorlik mahoratini namoyon qiladi.

*Xanjari nozing-la avval siynasi afgor o'la,
Tarki xobi rohat aylab kechalar bedor o'la,
Ro'zgori tiyra, subhi shomdan ham tor o'la.
Orzu aylarki bandek muttasil bemor o'la,
Kimki chashmi nargisi bemoring aylar orzu.*

Muqimiy hajr ta'siridagi qiynoqlar va muhabbatning ruhiy azobini tasvirlashda davom etadi. "Xanjari noz" (yorning bee'tiborligi), "siyna afgor" (yurak jarohatlangan), "tiyra ro'zgor" (umidsiz hayot) kabi obrazlar oshiqning azobli holatini tasvirlaydi.

*Oh, yo'xkim oshnoye, zohir etsam dardimi,
Ko'k dutunidin qaro har lahza ohi sardimi,
Kahrabo sonma ilojini bu rangi zardimi,
Zulmati hajringda boxmaz sham'a chashmim
mardumi,
Partavi ruxsori pur anvoring aylar orzu.*

Lirik qahramonning hijron va g'am-alam bilan yo'g'rilgan holati tasvirlangan. U sevgan yoridan judo bo'lgan va shuning azobini tortmoqda. Lirik qahramon o'z dardini yaqin hamdardi (oshno) oldida bayon qilish istagida. Oshiqning ishq yo'lida tortayotgan sovuq ohlari ko'k tutuni kabi qorayib ketgan. Bu o'rinda "ko'k dutuni" (osmon pardasi) – samovot ramzi. "Ohi sard" – oshiq chekayotgan iztirob ramzi. "Qaro" rang – nokomlik ramzi. "Kahrabo" – lirik qahramonning xastalashib, yuzlari oqarib, holsizlanganining belgisi. Go'yoki oshiq hijron dardiga davo topa olmayapti (Muqimiy).

Fuzuliy misralarida esa Zavqiy taxmisi tahlilida aytganimizdek, hajr (ayriliq) zulmatga (qorong'ulik) qiyoslanadi. Fuzuliyga ko'ra, oshiq yorning hajri qorong'uligida qolsa ham sham yorug'iga qiyo boqmaydi, chunki u yorning nurli yuzidan yorug'lik yetishini istaydi. Negaki, yorning porloq yuzidagi shu'la lirik qahramon uchun yagona orzu, uning najot yo'li – shu. Mazkur band sevgi va hijron motivlarini o'zida mujassam etgan. Lirik qahramonning yurak iztiroblari ohangdor va ma'nodor ifoda qilingan. Oshiq yorning nuri unga najot bo'lishiga umid qilgan holda, og'ir hijronni his etmoqda.

*Lablaringdin umrlar la'li Badahshondur xijil,
Qomatingdin sarv ila shamshod doim munfail,
Muntazir yo'lingda hayronmen Muqimiy oy-u yil,
Orzumandi visolingdur Fuzuliy xasta dil,
Vasling istab davlati diydoring aylar orzu.*

Muqimiy o'z sevgisi yo'lidagi sadoqatida sobit ekani haqida so'zlarkan, Fuzuliy g'azali mazmuniga hamohang quyma misralar ijod qiladi. U Zavqiyga qaraganda, o'z ishq dardini yorqinroq aks ettiradi va obrazlar orqali o'z holatini bayon qiladi.

Muqimiy o'z ash'orida Fuzuliy g'azali ruhiyatini saqlagan holda, uni madhiy tus bilan boyitgan. U Zavqiy taxmisidan farqli ravishda

go'zallik, muhabbat ta'siri va hajr qiynoqlarini yanada romantik uslubda tasvirlaydi. Zavqiy Fuzuliy g'azalining uch baytigagina taxmis bog'lagan, xolos. Muqimiyda esa bu hol to'la-to'kis ado etilganini ko'ramiz.

Kuzatishlarimiz asnosida aniqlandiki, Muhyi ham Fuzuliyning mashhur "aylar orzu" radifli g'azalidan o'z zamondoshlari qatori ta'sirlangan. Bu ta'sir Muhyining mazkur g'azalga qilgan nazirasida ko'rinadi. Naziraning diqqatli tomoni shundaki, u bir vaqtning o'zida ham nazira, ham muvashshahdir. Biz avvalgi ilmiy tadqiqotlarimizda Muhyining bu muxammasini batafsil sharhlaganimiz bois, bu maqolada uni to'liq keltirmadik.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Muhyi va uning zamondoshlari ijodida adabiy ta'sir, xususan, Fuzuliy g'azallariga bog'langan muxammaslar orqali ochiq ko'zga tashlanadi. Bu jarayonda adabiy aloqalar nafaqat shaklan, balki mazmun va badiiy mahorati jihatidan ham muhim o'rin tutadi. Zavqiy, Muqimiy va Muhyilarning she'riy tahlillari Fuzuliy g'azallariga uyg'un tarzda boyitilganini ko'rsatadi. Ushbu adabiy ta'sir nafaqat bu avlod shoirlari ijodiga, balki umumiy o'zbek she'riyati rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan.

Guvoh bo'ldikki, Fuzuliyning mazkur "Aylar orzu" radifli g'azaliga Muqimiy va Zavqiylar muxammas bog'lash yo'li bilan, Muhyi esa nazira qilish bilan (g'azalning vazni va radifidagina foydalanib) ergashishgan. Bu esa, fikrimizcha, mazkur shoirlarning Fuzuliy ijodidan ta'sirlangani, unga ijodiy ergashganini anglatadi. Yuqoridagi tahlillar esa bir g'azal asosida yaratilgan mazkur muxammaslarning har biri o'ziga xos original asar sifatida dunyoga kelganini ko'rsatadi. Bu esa davr shuarosining an'ana qobig'ida qolib ketmasdan novatorlik kasb etganidan dalolatdir.

She'riy kashfiyot zavqi har qanday shoir ijodiga kuchli turtki berishi barobarida, uning yangi qirralarini yuzaga chiqarishga ko'maklashadi, mahoratini charxlaydi, badiiy ko'nikmalarini yuksaltirishga undaydi. Shunday ekan, adabiy ta'sir jarayonida nafaqat avvalgi davrlar shoirlari, balki zamondoshlar ham ishtirok etishi – uning bir emas, ikki va undan ko'p ko'rinishlarda faol harakatlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Жалолов Т. Гўзаллик оламида: мақолалар, адабий тадқиқотлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 328 б. (310-311-бетлар).
2. Завкий. Ажаб замона: Шеърлар/Тўпловчилар: А. Мадаминов, А. Турдиалиев, —Т.: Шарқ, 2003. —176 б. – 87-бет.
3. Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 480 б. 337-бет.
4. Muhyiddin Muhyi. Majmu'oti ash'ori Muhyi. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozma asarlar bo'limida №11126 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. 69 varaqdan iborat. O'zbek va fors-tojik tillaridagi ushbu asar 1305-yilda Qo'qonda Muhyi tomonidan nasta'liq xatida ko'chirilgan. O'lchami: 11x17 sm. 16-bet.
5. Фузулий Муҳаммад. Асарлар. Икки жилдлик (Озарбайжончадан нашрга тайёрловчи Холид Расул). – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. – 384 б. 262-бет.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. А – Бешбалиқ. Таҳрир хайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев ва б. Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000. – 736 б. 124-бет.

